*Toshkent davlat agrar*
*universiteti rektorining*
*2026 yil “___” ______dagi*
*_________-sonli buyrug‘iga*
*2-ilova*

**IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA’LUMOT OLISH BO‘YICHA KIRISH IMTIHON SINOVLARINI BAHOLASH MEZONLARI**

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot olish bo‘yicha kirish imtihon sinovlari suhbat shaklida o‘tkaziladi va 4 tadan savol bo‘ladi. Har bir savolning javobi eng ko‘pi bilan 25 ball asosida baholanadi. Jami maksimal -100 ball.

**Baholash mezoni quydagi jadvalga asosan bo’lib o’tadi.**

| Baholash mezonlari | Baholash ballari |
|---|---|
| a) berilgan savolni (to‘liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo‘yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo‘lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog‘lay olsa, qaror qabul qila olsa, o‘z fikrini to‘liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa va muslaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa. | 22-25 |
| b) berilgan savolni yetarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo‘lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalami amaliyot bilan bog‘lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o‘z fikrini to‘liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy ) yondashsa va xulosalar chiqara olsa. | 19-21 |
| d) berilgan savolni qisman bilsa, u to‘g‘risida qisman tasavvurga ega bo‘lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o‘z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo‘l qo‘ysa va qisman xulosalar chiqarsa. | 14-18 |
| e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to‘g‘risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o‘z fikrini to‘liq bayon qila olmasa va umuman javob bera olmaslik. | 0-13 |

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot olish bo‘yicha barcha belgilangan ta’lim yo‘nalishlariga kirish sinovlari talabgorlarning dunyoqarashi, kasbiy ishtiyoqi va o‘qishga kirish sabablari, umumiy intellektual darajasi va ma’naviy-axloqiy darajalari bo‘yicha suhbat shaklida o‘tkaziladi va 4 tadan savol bo‘ladi. Har bir savolning javobi eng ko‘pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.